


Ibragimov N.S., Xurramov O.K.

<http://www.academicjournals.org/>
internet ochiq resursida ilmiy maqola e'lon
qilish bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIIY FAKULTET

“IQTISODIIY TA'LIM VA TURIZM” KAFEDRASI

<http://www.academicjournals.org/>

internet ochiq resursida ilmiy maqola
e'lon qilish bo'yicha

USLUBIIY K O'RSATMA

Tuzuvchilar: i.f.n. Ibragimov N.S.

o'qituvchi Xurramov O.K.

“DURDONA” NASHRIYOTI
BUXORO–2015

Buxoro Davlat Universiteti, “Iqtisodiy ta’lim va turizm” kafedrası dotsenti, i.f.n. N.S.Ibragimov, o’qituvchi O.K.Xurramov – <http://www.academicjournals.org/> internet ochiq resursida ilmiy maqola e’lon qilish bo’yicha uslubiy ko’rsatma. B.: BuxDU, 2015 yil. 20 bet.

Annotasiya: Uslubiy ko’rsatmada <http://www.academicjournals.org/> internet manzilida keltirilgan 108 ta ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiyot, biologiya, fizika, qishloq xo’jaligi, qurilish, san’at va ta’lim, huquq kabi xilma-xil sohalarni qamrab olgan xorijiy nufuzli ilmiy jurnallarda ingliz tilida ilmiy maqolalar chiqarish bo’yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Taqrizchilar:

1. Navro’z-zoda B.N., BuxDU, “Iqtisodiy ta’lim va turizm” kafedrası professori, i.f.d.
2. Azimov B.F., BuxMTI, “Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Uslubiy ko’rsatma:

Buxoro Davlat Universiteti “Iqtisodiy ta’lim va turizm” kafedrası yig’ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (8- sonli bayonnoma, 31-mart, 2015 yil).

Buxoro Davlat Universiteti “Ijtimoiy-iqtisodiy” fakultet ilmiy kengashida muhokama qilingan va tavsiya etilgan(6- sonli bayonnoma, 30.01.2015 yil).

Buxoro Davlat Universiteti o’quv-metodik kengash yig’ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan(_ sonli majlis bayonnomasi, _____2015 yil).

KIRISH

Globalizatsiya jarayonlari shiddat bilan kundalik hayotimizga kirib kelayotgani kabi, tadqiqot ishlarini ham global darajada amalga oshirish davr talabi bo'lib qolmoqda. Ayni kunga kelib tadqiqot ishlarining sifati va nufuzining yuqoriligi, ilmiy-amaliy ahamiyati uning xalqaro darajada nashr qilinganligi bilan uzviy bog'liq bo'lib qolmoqda. Mazkur uslubiy qo'llanma xorijiy nufuzli jurnallarda ilmiy maqola e'lon qilishni o'z oldiga maqsad qilib olgan barcha professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar va iqtidorli talabalarga mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanmada, <http://www.academicjournals.org/> internet manzilida keltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiyot, biologiya, fizika, qishloq xo'jaligi, qurilish, san'at va ta'lim, huquq kabi xilma-xil sohalarni qamrab olgan 108 ta xorijiy nufuzli ilmiy jurnallarda ingliz tilida ilmiy maqolalar chiqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Qo'llanmada, OAK ro'yxatiga kiritilishi mumkin bo'lgan mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarga qo'yiladigan talablar keltirilgan hamda misol tariqasida, <http://www.academicjournals.org/> tarkibiga kiradigan Mehmonnavozlik menejmenti va turizm jurnali (Journal of Hospitality Management and Tourism (JHMT))da ilmiy maqola e'lon qilish maqsadida tayyorlangan qo'lyozmalarga qo'yiladigan talablar izohlab berilgan.

OAK RO'YXATIGA KIRITILISHI MUMKIN BO'LGAN MAHALLIY VA XORIJIY ILMIY JURNALLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR¹

Respublika nashrlari uchun:

1. Nashrning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishi.
2. Nashrning tegishli fan tarmog'i yo'nalishida ixtisoslashgan bo'lishi.
3. Tegishli hollarda ilmiy maqolalarni chop etish bo'yicha ilmiy rukunning mavjudligi.
4. ISSN (seriyali nashrning xalqaro standart raqami) ro'yxatga olish raqamining mavjudligi.
5. Jurnalning rasmiy veb-sayti yoki veb-sahifasining mavjudligi.
6. Chop etiladigan materiallarni taqrizdan o'tkazishning majburiyligi (zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi OAK so'rovi asosida tegishli taqrizni taqdim etishning majburiyligi).
7. Tahririyat a'zolari tarkibida tegishli fan tarmog'i bo'yicha kamida 3 nafar fan doktori ilmiy darajasiga ega mutaxassisning mavjudligi.
8. Chop etiladigan ilmiy maqola quyidagi talablarga javob berishi kerak:
 - o'zbek, ingliz va rus tillarida qisqacha annotatsiyaning mavjudligi; tayanch so'z va iboralarning berilganligi;
 - foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxatining keltirilishi va ilmiy maqolaning kamida 0,25 b.t. hajmda bo'lishi;
 - muammoning qo'yilishi; materialning nazariy-metodologik va uslubiy jihatdan puxtaligi; manbalarning ishonchliligi; muammo, xulosa, taklif va tavsiyalarning asosliligi.

Xorijiy nashrlar uchun:

1. Nashrning tegishli fan tarmog'i yo'nalishida ixtisoslashgan bo'lishi.
2. ISSN ro'yxatga olish raqamining mavjudligi.

¹ <http://oak.uz/infouz/5-oak-royxatiga-kiritilgan-mahalliy-va-xorijiy-ilmiy-jurnallar.html> [7.01.2014]

3. Jurnalning rasmiy veb-sayti yoki veb-sahifasining mavjudligi.
4. Chop etiladigan materiallarni taqrizdan o'tkazilishi.
5. Nashr tahririyat a'zolari tarkibida tegishli fan tarmog'i bo'yicha mutaxassislarning mavjudligi.
6. Chop etiladigan ilmiy maqolada muammoning qo'yilishi; materialning nazariy-metodologik va uslubiy jihatdan puxtaligi; manbalarning ishonchliligi; muammo, xulosa, taklif va tavsiyalarning asosliligi talab etiladi.

<http://www.academicjournals.org/> internet manzilida keltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiyot, biologiya, fizika, qishloq xo'jaligi, qurilish, san'at va ta'lim, huquq kabi xilma-xil sohalarni qamrab olgan 108 ta xorijiy nufuzli ilmiy jurnallar² ularning ro'yxati quyidagicha:

Medical Sciences (Tibbiyot sohasi bo'yicha)

- ☑ *Journal of Infectious Diseases and Immunity* (Infeksion kasalliklar va immunitet jurnali)
- ☑ *Journal of Diabetes and Endocrinology* (Diabet va Endokrinologiya jurnali)
- ☑ *Journal of Medicinal Plants Research* (Dorivor o'simliklar tadqiqoti jurnali)
- ☑ *Journal of Cell Biology and Genetics* (Hujayralar biologiyasi va Genetika jurnali)
- ☑ *African Journal of Pharmacy and Pharmacology* (Afrikaning farmakologiya va farmasevtika jurnali)
- ☑ *Journal of Dentistry and Oral Hygiene* (Stomatologiya va og'iz bo'shlig'i gigiyenasi jurnali)
- ☑ *International Journal of Nursing and Midwifery* (Hamshiralik ishi va akusherlik xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of Parasitology and Vector Biology* (Parazitologiya va vektor biologiyasi jurnali)
- ☑ *Journal of Pharmacognosy and Phytotherapy* (Farmokognoziya va fitoterapiya jurnali)

²<http://www.academicjournals.org/journal> [7.01.2014]

- ☑ *Journal of Veterinary Medicine and Animal Health* (Veterinariya va hayvonlar salomatligi jurnali)
- ☑ *Journal of Toxicology and Environmental Health Sciences* (Toksikologiya va atrof-muhitni o'rganish jurnali)

Clinical Reviews and Opinions

- ☑ *International Journal of Nutrition and Metabolism* (Ovqatlanish va metabolizm xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of AIDS and HIV Research* (OITS va OIV tadqiqotlari jurnali)
- ☑ *Journal of Cancer Research and Experimental Oncology* (Rak va eksperimental onkologiya jurnali)
- ☑ *Journal of Clinical Immunology and Immunopathology Research* (Klinik immunologiya va immunopatologiya tadqiqotlari jurnali)
- ☑ *Journal of Clinical Medicine and Research* (Klinik meditsina va tadqiqot jurnali)
- ☑ *Journal of Clinical Pathology and Forensic Medicine* (Klinik patologiya va sud med ekspertiza jurnali)
- ☑ *Journal of Medical Genetics and Genomics* (Genetika va genomika jurnali)
- ☑ *Journal of Medical Laboratory and Diagnosis* (Med laborotoriya va diagnostika jurnali)
- ☑ *Journal of Metabolomics and Systems Biology* (Metabolomika va biologiya tizimlari jurnali)
- ☑ *Journal of Neuroscience and Behavioral Health* (Nevrologiya va xulq-atvor jurnali)
- ☑ *Journal of Physiology and Pathophysiology* (Fiziologiya va patofiziologiya jurnali)
- ☑ *Journal of Public Health and Epidemiology* (Aholi salomatligi va epidemiologiya jurnali)
- ☑ *Medical Case Studies* (Klinik holatlarni o'rganish)
- ☑ *Medical Practice and Reviews* (Tibbiy amaliyot)
- ☑ *Research in Pharmaceutical Biotechnology* (Farmasevtika biotexnologiyasi)

- ☑ *International Journal of Medicine and Medical Sciences* (Xalqaro Meditsina va tibbiyot ilmi jurnali)

Social Sciences (Ijtimoiy bilimlar)

- ☑ *African Journal of Political Science and International Relations* (Afrikaning siyosiy va xalqaro munosabatlar jurnali)
- ☑ *Journal of Economics and International Finance* (Iqtisodiyot va xalqaro moliya jurnali)
- ☑ *Journal of Geography and Regional Planning* (Geografiya regional rejalashtirish jurnali)
- ☑ *Journal of Hospitality Management and Tourism* (Mehmondo'stlik menejmenti va turizm jurnali)
- ☑ *African Journal of Business Management* (Afrikaning Biznes menejmenti jurnali)
- ☑ *Journal of Accounting and Taxation* (Buxgalteriya va soliq jurnali)
- ☑ *International Journal of Sociology and Anthropology* (Sotsiologiya va antropologiya xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of Public Administration and Policy Research* (Davlat boshqaruvi va siyosiy tadqiqot jurnali)
- ☑ *African Journal of Marketing Management* (Afrikaning Marketing menejmenti jurnali)

Biological Sciences(Biologik bilimlar)

- ☑ *African Journal of Biotechnology* (Afrikaning biotexnologiya jurnali)
- ☑ *Journal of Cell and Animal Biology* (Hujayra va hayvon biologiyasi jurnali)
- ☑ *International Journal of Genetics and Molecular Biology* (Genetika va Molekulyar biologiya xalqaro jurnali)
- ☑ *Biotechnology and Molecular Biology Reviews* (Biotexnologiya va Molekulyar biologiya sharhi)
- ☑ *African Journal of Microbiology Research* (Afrikaning Mikrobiologiya tadqiqotlari jurnali)

- ☑ *African Journal of Biochemistry Research* (Afrikaning bioximiya tadqiqotlari jurnali)
- ☑ *African Journal of Environmental Science and Technology* (Afrika atrof-muhitni o'rganish va Texnologiya jurnali)
- ☑ *African Journal of Food Science* (Afrika Oziq-Ovqat ilmi jurnali)
- ☑ *African Journal of Plant Science* (O'simlikshunoslik Afrika jurnali)
- ☑ *Journal of Ecology and The Natural Environment* (Ekologiya va Atrof muhit jurnali)
- ☑ *Journal of Entomology and Nematology* (Entomologiya va Nematologiya jurnali)
- ☑ *Journal of Bacteriology Research* (Baktereologik tadqiqotlar jurnali)
- ☑ *Journal of Bioinformatics and Sequence Analysis* (Bioinformatika va Mantiq tahlili jurnali)
- ☑ *Journal of General and Molecular Virology* (Umumiy va molekulyar virusologiya)
- ☑ *International Journal of Biodiversity and Conservation* (Bioxilma xillik va muhofaza qilish xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of Biophysics and Structural Biology* (Biofizika va strukturaviy biologiya jurnali)
- ☑ *Journal of Evolutionary Biology Research* (Evolutsion biologiya tadqiqotlari jurnali)
- ☑ *Journal of Yeast and Fungal Research* (Ahitqilar va zamburug'lar tadqiqotlari jurnali)
- ☑ *International Journal of Plant Physiology and Biochemistry* (O'simlik fiziologiyasi va biokimyo xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of Brewing and Distilling* (Pivo tayyorlash va Distillash jurnali)
- ☑ *Journal of Computational Biology and Bioinformatics Research* (Bioinformatika va bioinformatik tadqiqotlar jurnali)
- ☑ *Journal of Developmental Biology and Tissue Engineering* (Evolutsion biologiya va to'qimalar rivojlanishi jurnali)

- ☑ *Journal of Microbiology and Antimicrobials* (Mikrobiologiya va Antimikroblar jurnali)
- ☑ *International Journal of Biotechnology and Molecular Biology Research* (Biotexnologiya va molekular biologik tadqiqotlar xalqaro jurnali)

Agricultural Sciences (Qishloq xo'jaligi)

- ☑ *African Journal of Agricultural Research* (Afrikaning qishloq xo'jaligi tadqiqotlari jurnali)
- ☑ *Journal of Horticulture and Forestry* (bog'dorchilik va o'rmonchilik jurnali)
- ☑ *Journal of Plant Breeding and Crop Science* (O'simliklarni ko'paytirish va donchilik jurnali)
- ☑ *International Journal of Livestock Production* (chorvachilik xalqaro jurnali)
- ☑ *International Journal of Fisheries and Aquaculture* (baliqchilik va suv osti dunyosi xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of Development and Agricultural Economics* (Taraqqiyot va Agrar iqtisodiyot jurnali)
- ☑ *Journal of Agricultural Biotechnology and Sustainable Development* (Qishloq xo'jalik biotexnologiyasi va barqaror rivojlanish bo'yicha jurnal)
- ☑ *Journal of Agricultural Extension and Rural Development* (Qishloq xo'jalik bilimlarini kengaytirish va qishloq taraqqiyoti)
- ☑ *Journal of Cereals and Oilseeds* (boshhoqli ekinlar va moyli urug'lar jurnali)
- ☑ *Journal of Soil Science and Environmental Management* (Tuproqshunoslik va atrof-muhit menementi jurnali)
- ☑ *Journal of Stored Products and Postharvest Research* (G'amlangan mahsulotlar va hosi tadqiqotlari jurnali)

Physical Sciences (Fizik ilmlar)

- ☑ *African Journal of Mathematics and Computer Science Research* (Matematika va Kompyuter tadqiqotlari Afrika jurnali)
- ☑ *African Journal of Pure and Applied Chemistry* (Sof va amaliy kimyo Afrika jurnali)
- ☑ *International Journal of Physical Sciences* (Fizik ilmlar xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of Geology and Mining Research* (Geologiya va konchilik tadqiqoti jurnali)
- ☑ *Journal of Environmental Chemistry and Ecotoxicology* (Atrof-muhit kimyosi va ekotoksikologiya jurnali)
- ☑ *Journal of Internet and Information Systems* (Internet va Informatsiya tizimlari jurnali)
- ☑ *Journal of Oceanography and Marine Science* (Okeanografiya va dengiz ilmi jurnali)
- ☑ *Journal of Petroleum Technology and Alternative Fuels* (Neft texnologiyasi va alternativ yoqilg'ilar jurnali)

Engineering (Injenerlik)

- ☑ *Journal of Engineering and Technology Research* (Injenerlik va texnologik tadqiqotlar jurnali)
- ☑ *International Journal of Water Resources and Environmental Engineering* (Suv resurslari va tabiat injenerligi xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of Chemical Engineering and Materials Science* (Kimyoviy injenerlik va materiallar ilmi jurnali)
- ☑ *Journal of Civil Engineering and Construction Technology* (Jamoat joylari quruvchiligi va quruvchilik texnologiyasi jurnali)
- ☑ *International Journal of Computer Engineering Research* (Kompyuter muhandislik tadqiqoti xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of Electrical and Electronics Engineering Research* (Elektr va elejtrnika muhandislik tadqiqoti jurnali)

- ☑ *Journal of Engineering and Computer Innovations* (Muhandislik va kompyuter innovatsiyalari jurnali)
- ☑ *Journal of Mechanical Engineering Research* (Mexanika muhandislik tadqiqoti jurnali)
- ☑ *Journal of Petroleum and Gas Engineering* (Neft va gaz muhandisligi jurnali)

Arts and Education (San'at va ta'lim)

- ☑ *Educational Research and Reviews* (Pedagogik tadqiqot va tahrir)
- ☑ *International Journal of Psychology and Counselling* (Psixologiya va maslahat xalqaro jurnali)
- ☑ *Philosophical Papers and Review* (Falsafa fanidan maqolal)
- ☑ *International Journal of Educational Administration and Policy Studies* (Ta'lim boshqaruvi va siyosiy ta'limotlar xalqaro jurnali)
- ☑ *International Journal of Vocational and Technical Education* (Kasb hunar ta'limi xalqaro jurnali)
- ☑ *African Journal of History and Culture* (Afrika tarix va madaniyat jurnali)
- ☑ *International Journal of Library and Information Science* (Kutubxona va axborot ilmi xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of Media and Communication Studies* (Ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiya ilmi jurnali)
- ☑ *International Journal of English and Literature* (Ingliz tili va adabiyot xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of African Studies and Development* (Afrika ilmi va taraqqiyot jurnali)
- ☑ *Journal of Fine and Studio Art* (Tasviriy va kino san'ati jurnali)
- ☑ *Journal of Languages and Culture* (Tillar va Madaniyat jurnali)
- ☑ *Journal of Music and Dance* (Musiqqa va Raqs jurnali)
- ☑ *International Journal of Science and Technology Education Research* (Pedagogik tadqiqot texnologiyasi va ilmi xalqaro jurnali)
- ☑ *Journal of Physical Education and Sport Management* (Jismoniy tarbiya va sport jurnali)

Legal Studies (Huquq ilmi)


- ☑ *Journal of Law and Conflict Resolution* (Qonun va kelishmovchiliklar rezoltsiyasi jurnali)

Other Journals (Boshqa jurnallar)

- ☑ *International NGO Journal* (Xalqaro NGO (nodavlat tashkilot) jurnali)
- ☑ *Scientific Research and Essays* (Ilmiy tadqiqot va esselar)
- ☑ *International Journal of Peace and Development Studies* (Tinchlik va taraqqiyot bilimlari xalqaro jurnali)

Aytish joizki, bizning fikrimizcha ushbu jurnallar OAK ro'yxatiga kiritilishi mumkin bo'lgan xorijiy ilmiy jurnallarga qo'yiladigan talablarga to'la javob beradi.

Misol tariqasida, <http://www.academicjournals.org/> tarkibiga kiradigan Mehmonnavozlik menejmenti va turizm jurnalida (Journal of Hospitality Management and Tourism (JHMT)) ilmiy maqola e'lon qilish maqsadida tayyorlangan qo'lyozmalarga qo'yiladigan talablarni izohlab beramiz.



Maqola e’lon qilish etikasi³ (JHMT – Publication Ethics)

Mehmonnavozlik menejmenti va turizm jurnali (JHMT) COPE (comitee on publication ethics)⁴, ya’ni “Maqola e’lon qilish etikasi qo’mitasi” tomonidan qo’yiladigan talablarga asoslanadi.

JHMT mualliflaridan quyidagilarni kafolatlashni talab qiladi:

- E-mail orqali jo’natilgan tadqiqot ishlari muallif(lar)ning original ishi bo’lishi shart;
- Biror jurnalda oldin e’lon qilinmagan ishlarni uzatish mumkin;
- Bir vaqtning o’zida bir nechta ilmiy jurnallarga bir xil maqolani uzatish odobdan emas;
- Har qanday munozarali qarashlar aniq ko’rsatilgan bo’lishi shart.
- Tadqiqot ishining yozilishida qo’llanilgan manbalarni ko’rsatish zarur;

³ <http://www.academicjournals.org/journal/JHMT/publication-ethics> [7.01.2014]

⁴ <http://publicationethics.org/>

- Qo'lyozmalar uzatilgandan keyin ma'lum bo'lgan xatoliklarni nashriyotchilarga zudlik bilan ma'lum qilish maqsadga muvofiq.

Maqola taqrizchilari quyidagilarni kafolatlaydilar:

- Barcha qo'lyozmalar muallifning jinsi, millati, etnik kelib chiqishi, dini yoki siyosiy mavqeidan qat'i nazar faqatgina ishning ilmiy mazmunidan kelib chiqib adolatli tekshirilganligini;
- Baholash jarayonidagi har qanday kelishmovchilikdan muharrir xabardor qilinishini;
- Qo'lyozmaga tegishli har qanday ma'lumot sir saqlanishini;
- Qo'lyozmani chop etmaslik to'g'risidagi har qanday sabab muharrirga bildirilishini;

JHMT muharrirlari quyidagilarga amal qilishlari shart:

- Barcha qo'lyozmalar muallifning jinsi, millati, etnik kelib chiqishi, dini yoki siyosiy mavqeidan qat'i nazar faqatgina ishning ilmiy mazmunidan kelib chiqib adolatli baholanishi;
- Qo'lyozmaga tegishli har qanday ma'lumot sir saqlanishi;
- Qo'lyozmaga taalluqli har qanday sezib qolingan ixtilof fosh qilinishi kerak.

Tahririyat muharrirning bahosi asosida qabul qilingan qo'lyozmalar ustidan nashr qilish qarorlari uchun, jurnal tahrir guruhining siyosati hamda plagiat, tuhmat va mualliflik huquqi qarshi huquqbuzarliklar sabab qonuniy cheklashlar uchun to'liq javobgardir.

Mualliflar uchun yo'riqnoma

Mehmonnavozlik menejmenti va turizm jurnali ochiq resurs bo'lib, barcha xohlovchilarga mehmonxona xo'jaligini boshqarish tizimi va texnologiyasi, madaniy marosimlarni boshqarish (Tadbirlar menejmenti), anjumanlarni rejalashtirish, madaniyat va boshqa mavzularda tadqiqot natijalarini tezkor (har oyda) e'lon qilish imkoniyatini beradi.

Aniq mantiqiy ketma-ketlik va ilmiy ahamiyatga ega tadqiqot natijalarini nashriyotga uzatish tavsiya etiladi. Maqolalar qabul qilingandan so'ng, qisqa muddatdan keyin e'lon qilinadi.

E-mail orqali biriktirib uzatilgan faylda mualliflar haqida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi shart:

- muallifning to'liq manzili;
- telefon/ fax raqamlari.

Uzatilmoqchi bo'lgan faylning nomi birinchi muallifning (hammualliflikda yozilgan taqdirda) ismi sharifi bilan nomlanishi zarur. Masalan, *ImomovFozil.doc*.

Mualliflar opponentlarning nomzodlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega emas. Faqat tahririyat ma'lumotlar bazasidan mutaxassisligi mos keladigan taqrizchilarni tasodifan tanlaydi va qo'lyozmalarni o'rganib chiqishlari uchun ular bilan bog'lanadi.

Maqola turlari

Qo'lyozmalarning 3 xil turi taqdim etilishi mumkin:

Odatiy maqolalar: ular yangi va ehtiyotkorlik bilan aniqlangan natijalarni tasvirlashi kerak va o'tqazilgan tajriba jarayoni to'liq tasvirlanishi maqsadga muvofiq. Maqolaning hajmi tadqiqot ishini aniq tasvirlab berish va talqin qilish uchun zarur kattalikda bo'lishi maqsadga muvofiq.

Qisqa xabarlar: qisqa xabarlar kichik tugallangan taqiqotlarning natijalarini eslatish yoki yangi model va gipotezalarni, innovatsion usullar, texnikalar va uskunalarni izohlab berish uchun mos keladi. Qisqa xabarlarining hajmi 2 – 4 ta nashr qilingan bet (taxminan 6 – 12 qo'lyozma betlar)dan iborat bo'lishi mumkin.

Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotlar: hozirgi kunning dolzarb masalalari qayta ko'rib chiqilgan va istiqbolli tahlil qilingan barcha tadqiqot ishlaridir.

Tahririyat ayni maqolalarni katta qiziqish bilan qabul qilib oladi va qo'llab quvvatlaydi. Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotlar 4 – 6 nashr qilingan betdan

(taxminan 12 – 18 qo'lyozma bet) oshmagan hajmda bo'lishi kerak. Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotlar ham diqqat bilan qayta ko'rib chiqiladi.

Qayta tahrirdan o'tqazish jarayoni

Barcha qo'lyozmalar redaktor va redaktorlar guruhi a'zolari yoki chetdan olingan tekshiruvchilar tominidan tahrir qilinadi. Qarorlar imkoni boricha tez qabul qilinadi va jurnal tahrirchilarning mulohazalarini to'gridan to'g'ri mualliflarga yetkazishga harakat qiladi. Redaktorlar guruhi keyingi bosqichga o'tgan qo'lyozmalarni qayta ko'rib chiqadi. Qabul qilingan qo'lyozmalarni qisqacha chop etish JHMT ning asosiy maqsadidir.

Regular articles (Doimiy maqolalar)

Qo'lyozmaning barcha qismlari ikki interval ko'rinishida chop etilishi hamda barcha betlari mavzu nomi berilgan betdan boshlab nomerlanishi kerak.

Sarlavha maqola mazmunini ifodalovchi qisqa ibora ko'rinishida bo'lishi kerak. Sarlavha beti avtorning to'liq ismini va , sarlavha varag'i muallifning to'liq nomini va hammualliflarni aks ettirishi kerak, hammuallif nomini telefon, faks va e-mail ma'lumotlari bilan birga ko'rsatilishi shart. Mualliflarning hozirgi amaldagi manzillari snoska ko'rinishida paydo bo'lishi kerak.

Xulosa to'liq izohlangan bo'lishi, mavzuni qisqacha yoritishi, tajribalarning ko'lamini bayon qilishi, muhim ma'lumotlarni ko'rsatishi, hamda asosiy topilmalar va xulosalarni aks ettirishi kerak.

Rezyume 100 dan 200 tagacha so'zdan iborat bo'lishi kerak. To'liq gaplar, aktiv fellar ishlatilishi kerak, hamda o'tgan zamonda yozilishi lozim. Standard nomenklatura ishlatilishi kerak va qisqartmalar mumkin emas. Hech qanday adabiyot misol keltirilishi mumkin emas.

Nostandart qisqartmalarng ro'yxati ko'rsatilishi kerak. Umuman olganda, nostandart qisqartma faqatgina atamalar juda uzun bo'lgandagina va ko'p qo'llanilgandagina ishlatilishi kerak. Har qaysi qisqartma to'g'ri talaffuz qilinishi va birinchi marta qo'llanilayotganda qavsda izohlanishi kerak. Faqatgina tavsiya

qilingan birliklar ishlatilishi kerak. Mualliflar mg/ml kabi birliklardan foydalanishlari kerak. Standard qisqartmalar izohlanishi shart emas.

Muqaddima muammoning aniq bayonini, mavzuga oid adabiyotlar, va taklif qilingan yondashuv yoki yechimni taqdim qilishi kerak. Bu hamkasblarga ilmiy fanlarning keng miqyosida tushunarli bo'lishi kerak.

Tajribalarni amalga oshirish uchun materiallar va metodlar yetarli bo'lishi kerak. Biroq, faqatgina haqiqatda yangi jarayonlar to'liq yoritilishi; oldin chop qilingan jarayonlar misol keltirilishi va chop qilingan jarayonlarning muhim o'zgartirishlari qisqa eslatib o'tilishi kerak. Tijorat nomlari bosh harf bilan yozilishi va ishlab chiqaruvchining nomi va adresi ilova qilinishi kerak. Unda sarlavha ishlatilishi mumkin. Umumiy qo'llanma usullari mukammal yoritilishi shart emas.

Natijalar aniq va to'g'ri taqdim qilinishi kerak. Muallifning tabribalaridagi topilmalarni tasvirlayotganda natijalar o'tgan zamonda berilishi kerak. Oldin chop etilgan topilmalar hozirgi zamonda yoziladi. Natijalar adabiyotlarga keng to'xtalmasdan, izohlanishi kerak. Munozaralar, taxminlar va ma'lumotning batafsil izohlari natijalarga qo'shilishi shart emas. Lekin Munozara bo'limiga kiritilishi kerak.

Maqolaning oxirida xulosalar qisqacha berilishi kerak. Natijalar va Munozara bo'limlariga sarlavha kiritilishi va agar to'g'ri kelsa ikkala bo'lim birlashtirilishi mumkin.

Jadvallar imkoni boricha kichiklashtirilgan va oddiylashtirilgan bo'lishi kerak. Jadvallar kursivda , nomi va snoskalar kiritilgan holda chiziladi. Har bir jadval alohida betda bo'lishi, ketma-ket arab raqamlarida berilishi, izoh va sarlavha bilan berilishi kerak. Jadvallar o'zi yaqqol tushunarli bo'lib, qo'shimcha izohlarsiz kiritilishi kerak. Tajribalardagi metodlar izohda batafsil berilishi kerak. Bir xil ma'lumotlar ham jadvalda, ham grafikda yoki tekstda takror berilmasligi kerak.

Raqamli izohlar alohida varaqda sonli ketma-ketlikda berilishi kerak. Grafiklar Microsoft Word fayliga kiritilishidan oldin GIF, TIFF, JPEG yoki Powerpointda sifatli chop etiladigan holda tayyorlanishi kerak. Jadvallar Microsoft Word da tayyorlanishi kerak. Sonlarni ko'rsatish uchun arab raqamlaridan va ularning qismlari uchun bosh harflardan foydalaning (*masalan, Figure1*). Har bir izohni sarlavha bilan

boshlang, sonlar qo'lyozma ma'lumotlarini o'qimay turib tushunarli boladigan darajada yetarli tavsiflangan bo'lishi kerak. Izohlarda berilgan ma'lumot tekstda takrorlanmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Tekstda, adabiyot nomi qavsda sanasi bilan birga muallif nomidan keyin beriladi. Agar ikkitadan ortiq muallif bo'lsa unda faqatgina bittasining nomi bilan beriladi. Agar ko'rsatilayotgan muallifning bir nechta asari bir yilda nashr qilingan bo'lsa, tekstdagi va adabiyotlar ro'yxatidagi ushbu asarlar kichik harflar bilan , 'a' va 'b' kabi , asarning sanasidan keyin ularni farqlash uchun yozilishi kerak.

Misol uchun:

Abayomi (2000), Agindotan et al. (2003), (Kelebeni, 1983), (Usman and Smith, 1992), (Chege, 1998; Chukwura, 1987a,b; Tijani, 1993,1995), (Kumasi et al., 2001)

Adabiyotlar maqolaning oxirida alfavit ketma-ketligida berilishi kerak. Tayyorlanayotgan maqolalar, nashrga berilgan maqolalar, chop etilmagan mulohazalar, shaxsiy xabarlar va h.z adabiyotlar ro'yxatiga kiritilmaydi va faqatgina maqola matnida ko'rsatib o'tiladi. (masalan: Nairobi Universiteti, Keniya, shaxsiy aloqalar). Jurnal nomlari Kimyoviy konspektlarga ko'ra qisqartirilgan. Adabiyotlarning to'g'riligi uchun mualliflar to'liq javobgar.

Misollar:

Chikere CB, Omoni VT and Chikere BO (2008). Distribution of potential nosocomial pathogens in a hospital environment. Afr. J. Biotechnol. 7: 3535-3539.

Moran GJ, Amii RN, Abrahamian FM, Talan DA (2005). Methicillin-resistant *Staphylococcus aureus* in community-acquired skin infections. Emerg. Infect. Dis. 11: 928-930.

Pitout JDD, Church DL, Gregson DB, Chow BL, McCracken M, Mulvey M, Laupland KB (2007). Molecular epidemiology of CTXM-producing *Escherichia coli* in the Calgary Health Region: emergence of CTX-M-15-producing isolates. Antimicrob. Agents Chemother. 51: 1281-1286.

Pelczar JR, Harley JP, Klein DA (1993). Microbiology: Concepts and Applications. McGraw-Hill Inc., New York, pp. 591-603.

Qisqa xabarlar ko'pi bilan ikkita raqamli ma'lumotlar va jadval bilan chegaralanadi. Ular to'liq matnda beriladigandan ko'ra ko'p va to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Yuqorida qayd etilgan qo'lyozma tayyorlash bo'yicha punktlar quyidagi farqlar bilan qisqa xabarlar uchun ham ishlatiladi.: (1) izohlar 100 ta so'zdan oshmasli; (2) alohida materiallar va metodlar bo'limi o'rniga, eksperimental jarayonlar izohli raqamlar va snoska jadval ko'rinishida berilishi mumkin; (3) natijalar va muhokamalar bitta yagona bolimga birlashtirilishi kerak.

Dalillar va rasmlar. Elektron dalillar PDF fayl ko'rinishida tegishli mualliflarga jo'natiladi. Qog'ozdagi dalil qo'lyozmaning so'nggi versiyasi hisoblanadi. Qo'lyozmaning yakuniy holatida tipografik yoki kichik xatolardan tashqari boshqa o'zgartirishlar kiritilmaydi. Sababi JHMT online da keng ommaning e'tiborini jalb etish uchun bepul chop etiladi., mualliflar qo'lyozmaning butun matni (ham HTML ham PDF) ga bepul kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek ular PDF faylni bepul ko'chirib olishlari vaundan xoxlagancha nusxa chiqarishlari mumkin.

Mualliflik huquqi: maqolani topshirish quyidagilarni anglatadi ya'ni: tasvirlanayotgan ish oldin e'lon qilinmaganligini (istisno: izoh yoki chop qilingan maruza yoki tezizning bir qismi bo'lsa); boshqa biror yerda nashrga berilmaganligi; hamda agar maqola nashrga qabul qilinsa, mualliflar avtomatik tarzda mualliflik huquqini nashriyotchiga berishlari kerak.

Mehmondo'stlik Menejmenti va turizm jurnali (Journal of Hospitality Management and Tourism) o'zining online qo'lyozmalar menejmenti tizimi orqali qo'lyozmalrni qabul qiladi.

O'z maqolangizni jo'natishdan oldin barcha yo'riqnomalarni e'tibor bilan o'qib chiqing. Agr yuborish jarayonida bironqiyinchiliklarga duch kelsangiz ushbu jhmt@academicjournals.org manzilga murojaat qiling.

МУҲАРРИР:
ТЕХНИК МУҲАРРИР:

И. СУБҲОНИЙ
А. НИЁЗОВ

Nashriyot litsenziyasi A-1 № 178. 08.12. 2010. Original maketdan bosishga ruxsat etildi. 03.07. 2015. Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozi. Bosma tabog'i 1,25. Adadi 100 nusxa. "Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ huzuridagi "DURDONA" nashriyoti: Buxoro shahri, Namozgoh ko'chasi, 97. Bahosi kelishilgan narxda.

*MCHJ "Sharq-Buxoro" bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri, O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2-uy.
Tel.: (0-365) 222-46-46.*